

## IQTISODIYOT FANLARIDA TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINING MAZMUNI VA AHAMIYATI

*Yaxshimuratova Sevara Rustam qizi*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti*

[yaxshimuratovasevar@gmail.com](mailto:yaxshimuratovasevar@gmail.com)

**Annотatsiya:** Mazkur maqola tadqiqotchilik faoliyatining jamiyat va iqtisodiyot rivojidadagi muhim o‘rnini tahlil qiladi. Tadqiqotchilik nafaqat ilmiy bilimlarni yaratish, balki ularni amaliyotda qo‘llash orqali ijtimoiy va iqtisodiy tizimlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Maqolada ilmiy tadqiqotlar orqali jamiyatning turli sohalaridagi masalalarni hal qilishda yangi yondashuvlarni ishlab chiqish imkoniyatlari ham yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** tadqiqotchilik, innovatsiya, amaliyot, texnologiya, ilm-fan, rivojlanish, barqarorlik.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqotchilik faoliyati insoniyat tarixida muhim o‘rin tutgan va jamiyatning har bir sohasida rivojlanishga turtki beradigan jarayonlardan biridir. Ilmiy tadqiqotlar, yangi bilimlarni yaratish, mavjud bilimlarni chuqurlashtirish va amaliyotga tadbiiq etishda muhim vosita sifatida faoliyat yuritadi. Tadqiqotchilik, faqat ilm-fan sohalariga xizmat qilmasdan, jamiyatning barcha qatlamlarini, iqtisodiyotni, madaniyatni, ta‘lim tizimini, ekologiyani va boshqa ko‘plab sohalarini rivojlantirishga hissa qo‘shadi. Bugungi kunda global miqyosda yuzaga kelgan yangi muammolar, iqlim o‘zgarishi, pandemiyalar, texnologik inqiloblar kabi jarayonlar ilmiy izlanishlar va tadqiqotlarning ahamiyatini yanada oshirdi. Tadqiqotchilik faoliyatining maqsadi faqat nazariy bilimlarni yaratish emas, balki bu bilimlarni amaliyotga tatbiiq qilish va ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik muammolarni hal qilishdir. Shuningdek, ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalarni yaratish va yangi texnologiyalarni ishlab chiqishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot faoliyati-ta‘lim jarayonidagi innovasion harakat, interaktiv metod bo‘lib, ta‘lim oluvchining bilish jarayonini samarali rivojlantirishdir. Ta‘lim jarayonidagi tadqiqot faoliyati talabalarda ijodiy va tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga yordam beradi, nutq, dunyoqarashi kengayadi, turli xil muammolarni mustaqil yechishga sharoit yaratadi.

M.V. Stepanova va A.P. Tryapisina tomonidan o‘quv tadqiqotlari uch guruhga ajratilgan: 1) mono–predmetli tadqiqotlar; 2) fanlararo tadqiqotlar; 3) mavzudan tashqari mustaqil izlanish. Mono–predmetli tadqiqot ma‘lum bir fan bo‘yicha olib boriladi va ushbu fanning mazmuniga muvofiq aniqlangan muammoni hal qilish uchun bilimlardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Bu turdagi tadqiqot natijalari alohida o‘quv fanining mazmunidan tashqariga chiqmaydi va odatda uni o‘rganish jarayonida olinadi. Bunday tadqiqotlar talabalarning ma‘lum bir fan bo‘yicha bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirishga qaratilgan. Mono–predmetli ta‘lim tadqiqotining maqsadi fanning predmet doirasidan tashqariga chiqmaydigan asosiy muammolarni hal qilishdir. Bunday maqsad ushbu fan o‘qituvchi rahbarligida amalga oshiriladi [1].

Ilmiy tadqiqotlar nafaqat yangi bilimlarni yaratadi, balki jamiyatning barcha sohalariga ta'sir qiladi. Tadqiqotchilikning roli ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal qilishda juda muhimdir.[2] Tadqiqotlar orqali yaratilgan innovatsiyalar, bozor iqtisodiyotiga qanday hissa qo'shishini va yangi ish o'rinlari, texnologik rivojlanish va iqtisodiy o'sishni qanday rag'batlantirishi mumkinligini ko'rsatadi. Asarda, ilmiy tadqiqotlarning iqtisodiy samaradorlikni oshirish va jamiyatda barqaror rivojlanishni ta'minlashdagi muhimligi ta'kidlanadi.

A. F. Tursunovning asari ijtimoiy tadqiqotlar va jamiyat rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qiladi. Tadqiqotlar jamiyatda mavjud bo'lgan muammolarni o'rganishga, yangi yondashuvlarni ishlab chiqishga va ijtimoiy tenglikni ta'minlashga yordam beradi. Muallif, Innovatsion iqtisodiyotning shakllanishida ilmiy tadqiqotlar va texnologik yangiliklar jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga turtki beradi deydi.[3] Tadqiqotchilikning jamiyatga ta'siri va uning taraqqiyotga qo'shgan hissasi bu asarda o'rganilgan asosiy masaladir.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Maqolada tadqiqotchilik faoliyatining ahamiyatini o'rganish uchun tahliliy, empirik, taqqoslash va modellashtirish metodlari qo'llaniladi. Tahliliy metod orqali ilmiy adabiyotlar va tadqiqotlar asosida tadqiqotchilikning jamiyat va iqtisodiyotdagi o'rni tahlil qilinadi. Empirik metod yordamida so'rovnomalar va statistik ma'lumotlar yig'ilib, ilmiy tadqiqotlarning amaliy ahamiyati aniqlanadi. Taqqoslash metodida turli mamlakatlardagi tadqiqotchilik faoliyatlari solishtiriladi. Modellashtirish esa ilmiy tadqiqotlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga ta'sirini nazariy model orqali o'rganishga imkon beradi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Har bir faoliyat turi o'zining maqsad va vazifalariga ko'ra ma'lum bir yo'nalishlarga ega hisoblanadi. Tadqiqotchilik faoliyati ham turli yo'nalishga egadir. Demak biz ishimizning maqsadi va oldimizga qo'ygan vazifamizga ko'ra ushbu yo'nalishlardan birini tanashimiz va tadqiqot olib borishimiz mumkin.

Tadqiqotchilik faoliyati turli yo'nalishlarda olib borilishi mumkin bo'lib, uning asosiy turlari quyidagilardan iborat:

*Fundamental tadqiqotlar* – nazariy bilimlarni rivojlantirish va yangi ilmiy qonuniyatlarni kashf qilishga qaratilgan tadqiqotlar. Bular uzoq muddatli ilmiy ishlar bo'lib, amaliy jihatdan tezkor natija bermasligi mumkin, biroq kelajak ilm-fan rivojiga mustahkam poydevor yaratadi.

*Amaliy tadqiqotlar* – muayyan sohalarda aniq muammolarni hal qilishga qaratilgan bo'lib, fundamental tadqiqotlar asosida ishlab chiqiladi. Masalan, yangi dorilar yaratish yoki qishloq xo'jaligi hosildorligini oshirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar.

*Innovatsion tadqiqotlar* – yangi mahsulot, texnologiya va xizmatlarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan bo'lib, ular sanoat va iqtisodiy sohalarning rivojlanishiga turtki beradi.

*Eksperimental tadqiqotlar* – oldindan belgilangan gipotezalarni tasdiqlash yoki rad etish uchun laboratoriya va real sharoitlarda o‘tkaziladigan sinovlar.

*Tahliliy tadqiqotlar* – turli ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va ularning asosida ilmiy xulosalar chiqarishdan iborat. Ijtimoiy fanlar, iqtisodiyot va siyosatshunoslikda keng qo‘llaniladi.

Ilmiy tadqiqot ishida aniqlik, o‘byektivlik, mantiqiylik, izchillik o‘ziga xoslik, qisqalik va to‘liqlilik kabi me’yorlar mavjudki, bu me’yorlar ilmiy asarda o‘z ifodasini topishi kerak. Har qanday ilmiy tadqiqot ishida tadqiq qilingan ilmiy xodisa aniq tasvirlanadi. Ilmiy tadqiqot natijalari mantiqiy fikrlash va mushohada yuritish orkali izchil bayon etiladi.

Aniqlik - hodisani predmet ma’nosini anglatuvchi so‘zlarning nominativ ma’noda qo‘llanilishi manosemantik xarakterga ega bo‘lishi sinonimiyaning bir qadar chegaralanishi, atamalarning ilmiy nutqqa mos qo‘llanishida ko‘rinadi. Aniq fikrsiz ilmiy bilimning bo‘lishi mumkin emas.

Obyektivlik - narsa va hodisalarning haqqoniy mavjudligi ularning to‘g‘ri fan tushunchalari asosida izohlanishi, fikrning misollar daliliy materiallar, teorema va formulalar bilan isbot qilinishida ko‘rinadi.

Mantiqiy izchillik - abstrakt atamalarning ko‘p qo‘llanishi, fikrning bir-biriga mantiqiy bog‘lanishi, izchil bayon etilishi ilmiy nutqda izchillikni yuzaga keltiruvchi maxsus o‘ziga xos so‘z va birikmalarning mavjudligida aks etadi.

Ixchamlik-ilmiy nutqqa xos belgidir. Ilmiy bayon ortiqcha tasvir va izohni talab etmaydi. Shu sababli ilmiy bayonda narsa va hodisalar tasviri uchun uzundan-uzoq o‘xshatish, sifatlash kabi tasviriy vositalar qatnashmaydi. Bu kabi ortiqcha bayon fikrni chalg‘itib, diqqatini bo‘ladi. Shuning uchun ilmiy bayon doimo ixchamlikni talab etadi.

To‘liqlik - ilmiy tadqiqot natijalarini bayon etishda, muallifning ko‘z oldida o‘ta talabchan kitobxon, ilmiy jamoatchilik namoyon bo‘lishi kerak. Shunga ko‘ra, muallif o‘z fikrini isbotlash uchun juda ko‘plab daliliy materiallarni keltirish bilan o‘quvchida ushbu ilmiy muammo hakida tasavvur hosil qiladi. Shuning uchun, ilmiy material imiy uslubda har bir so‘z aniq, to‘g‘ri ma’noda qo‘llanib, fikr to‘liq bayon etiladi.

Tadqiqotlarning turli turlari ilmiy izlanishlarni amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Har bir tadqiqot turi o‘zining metodologiyasi va maqsadiga ko‘ra turli yo‘nalishlarga xizmat qiladi. Tadqiqotchilar, o‘zlarining izlanishlarida aniq maqsadga erishish uchun turli tadqiqot turlarini qo‘llashadi. Shuningdek, bu tadqiqotlar yangi bilimlarni yaratish, muammolarni hal qilish va innovatsiyalarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Tadqiqot metodologiyasi — bu ilmiy izlanishlar olib borishda qo‘llaniladigan usul va yondashuvlarning yig‘indisidir. U tadqiqotning qanday qilib amalga oshirilishi, qaysi metodlar, usullar va vositalar ishlatilishi kerakligini belgilaydi. Tadqiqot metodologiyasi ilmiy ishning asosini tashkil etadi va izlanishning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Har bir ilmiy izlanishning maqsadiga, yo‘nalishiga va sohaga qarab metodologiya ham o‘zgaradi.

Tadqiqot metodologiyasi, ilmiy natijalarga erishishda asosiy yo‘ldosh bo‘lib, metodlar va usullar orqali ilmiy muammoni to‘g‘ri va samarali hal qilish imkonini yaratadi. Tadqiqotning sifatli bo‘lishi, uning aniq metodologiyasiga bog‘liq. Ushbu

maqolada tadqiqot metodologiyasining ahamiyati, uning asosiy elementlari va ilmiy izlanishlarda qanday ishlatilishi haqida soʻz yuritiladi.

Tadqiqot metodologiyasining asosiy elementlari, tadqiqotning qanday y oʻnalishda olib borilishi, qanday metodlar va vositalar ishlatilishi, maʼlumotlarni qanday yigʻish va tahlil qilish jarayonlarini oʻz ichiga oladi. Bu elementlar quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

*Tadqiqot yondashuvi:* Tadqiqot yondashuvi, tadqiqotning umumiy maqsadi va maqsadga erishish usulini belgilaydi. Yondashuvlar turli xil boʻlishi mumkin, masalan, sifatli, miqdoriy yoki aralash yondashuv.

*Maʼlumot yigʻish usullari:* Tadqiqotda foydalaniladigan maʼlumot yigʻish usullari metodologiyaning ajralmas qismi hisoblanadi. Maʼlumotlar, soʻrovnomalar, intervyular, eksperimentlar, kuzatishlar yoki arxiv maʼlumotlari orqali yigʻilishi mumkin.

*Maʼlumotlarni tahlil qilish usullari:* Yigʻilgan maʼlumotlarni tahlil qilish metodologiyaning ikkinchi muhim qismidir. Bu jarayon statistik, kashfiyotchi yoki tasviriy tahlil usullarini oʻz ichiga oladi.

*Nazariy va amaliy yondashuvlar:* Tadqiqot metodologiyasida nazariy asoslarni ishlab chiqish va amaliy muammolarni hal etishga yoʻnaltirish zarurdir. Nazariy yondashuvlar ilmiy izlanishlarga y oʻnalish beradi, amaliy yondashuvlar esa ushbu nazariyalarni hayotga tadbiq etadi.

Tadqiqot metodologiyasi ilmiy izlanishlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. U tadqiqotning samarali va aniq boʻlishini, maʼlumotlarni toʻgʻri yigʻish va tahlil qilishni taʼminlaydi. Tadqiqotchilar uchun metodologiyani toʻgʻri tanlash, izlanishlarining ishonchli va aniq boʻlishi uchun muhimdir. Shuningdek, metodologiya ilmiy ishning barcha bosqichlarida, jumladan, maʼlumotlar yigʻish, tahlil qilish va xulosalar chiqarishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Tadqiqot metodologiyasini toʻgʻri tanlash va qoʻllash, ilmiy ishlarning sifatini va ahamiyatini oshiradi.

Ilmiy tadqiqot ishlarida quyidagilar farqlanadi: ilmiy yoʻnalish, muammolar va mavzular. Ilmiy yoʻnalish – fanning muayyan tarmogʻida yirik, fundamental, nazariy eksperimental masalalarni hal etishga bagʻishlangan jamoaviy ilmiy tadqiqot sohasi.

Ilmiy yoʻnalish qoʻyidagi tuzilmaviy birliklarga boʻlinadi: mujassamaviy muammolar va muammolar, mavzular va masalalar.

Muammo – murakkab ilmiy masala boʻlib, hal etishni, tadqiq etishni talab qiladi. U muammoviy vaziyat natijasi hisoblanadi, bu mavjud eski bilimlar va empirik yoki nazariy tadqiqotlar natijasida yangidan topilgan bilimlar oʻrtasida ziddiyat yuzaga kelishi tufayli hosil boʻladi. Mujassamaviy muammolar (yoki problematika) – odatda, bir yoʻnalishdagi murakkab bir qancha masalani oʻz ichiga oluvchi muammolar majmui.

Mavzu – bu ilmiy masala boʻlib, tadqiqot talab qiluvchi muammolar muayyan sohasini qamrab oladi. U koʻplab tadqiqiy masalalarga – muammoning aniq bir sohasiga taalluqli ancha mayda ilmiy masalalarga asoslanadi. Muammoni yoki masalani hal etishda muayyan tadqiqot vazifasi yechiladi, masalan, yangi materialni ishlab chiqish, konstruksiya, ilgʻor texnologiya va shu kabilarni yaratish. Bunda ularni

bajarish faqat nazariy ahamiyat kasb etibgina qolmay, balki asosan kutilayotgan muayyan iqtisodiy samaraga ega amaliy ahamiyat ham kasb etadi.

Ilmiy tadqiqot mavzusiga bir qator talablar qo'yiladi:

1. Mavzu dolzarb bo'lishi, hozirgi paytda hal etishni talab qilishi zarur. Fundamental tadqiqotlar bilan bog'liq mavzular dolzarblik darajasini belgilash uchun hozircha tegishli mezonlar yo'q. Shuning uchun, mazkur holda dolzarblikni yirik olim yoki ilmiy jamoa belgilaydi. Mavzuning amaliy tavsifiga kelsak, ularning dolzarbliigi, qoidaga ko'ra ishlab chiqarish muayyan tarmog'ining rivojlanish va iqtisodiy samaradorlik talablariga ko'ra belgilanadi.

2. Mavzu yangi ilmiy masalani hal etishi va ilmiy yangilik tavsifiga ega bo'lishi kerak.

3. Ilmiy mavzuga qo'yiladigan muhim talablar bo'lib iqtisodiy samaradorlik va ahamiyatlilik hisoblanadi. Amaliy tadqiqotlar bilan bog'liq mavzular tanlash bosqichida taxminiy belgilanadigan iqtisodiy samara berishi lozim. Fundamental tavsifdagi mavzuni tanlashda iqtisodiy samaradorlik mezoni ahamiyatlilik mezoniga o'z o'rnini bo'shatib beradi.

4. Mavzu ilmiy yo'nalishiga mos bo'lishi kerak. Bu ilmiy jamoa malakasi va vakolatidan eng to'liq ravishda foydalanishga imkon beradi. Natijada ishlanmaning nazariy darajasi, sifati va iqtisodiy samarasi oshadi, tadqiqotning bajarilish muddati qisqaradi.

5. Joriy etilish mavzuning muhim tavsifi bo'lib hisoblanadi. Mavzuni ishlab chiquvchilar uni rejadagi muddatda tugatilish imkoniyatini belgilashlari va buyurtmachining ishlab chiqarish sharoitlariga joriy etilishini aniqlashlari kerak. Ular tegishli ishlab chiqarishni, uning hozirgi vaqtdagi va kelgusidagi talablarini yaxshi bilishlari lozim.

Mavzuni tanlash mamlakat va xorijiy adabiyot manbalarini, ya'ni hal qilinayotgan masalaga bag'ishlangan. Diqqat bilan o'rganib chiqish bilan qo'shib olib boriladi. Bu velosipedni qayta kashf etmaslik uchun, shuningdek zamonaviy ilmiy-tadqiqotlar yo'nalishini aniqlash uchun zarur.

Tadqiqotchilik orqali ilmiy bilimlar rivojlanadi, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarni hal qilishda yangi yondashuvlar ishlab chiqiladi, shuningdek, insoniyatning kelajakdagi rivojlanish istiqbollari shakllanadi. Tadqiqotchilikning ahamiyatini ko'rsatishda bir nechta asosiy jihatlarga to'xtalib o'tish mumkin.

### **Ilmiy bilimlarning yaratilishi va rivojlanishi**

Tadqiqotchilik faoliyati yangi bilimlarning yaratilishida va mavjud nazariyalarni takomillashtirishda markaziy o'rin tutadi. Ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar yangi qonuniyatlar, nazariyalar va tushunchalarni ishlab chiqish orqali insoniyatning bilim doirasini kengaytiradi. Tadqiqotlar orqali nafaqat yangi bilimlar yaratiladi, balki mavjud bilimlar ham chuqurlashtiriladi va kengaytiriladi. Misol uchun, fizikada yangi kashfiyotlar, tibbiyotda yangi davolash usullari, yoki iqtisodiyotda yangi modellarning ishlab chiqilishi tadqiqotchilik faoliyati orqali amalga oshiriladi.

### **Ijtimoiy muammolarni hal qilish**

Tadqiqotchilik faoliyati ijtimoiy muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotlar orqali jamiyatdagi mavjud muammolar, masalan, ta'lim, sog'liqni saqlash,

mehnat bozorida tengsizlik, ekologik inqiroz va boshqalar o'rganiladi. Tadqiqotchilik jamiyatda yuzaga kelayotgan yangi ijtimoiy muammolarni aniqlash va ularga yechim topish uchun zarur bo'lgan bilim va yondashuvlarni yaratadi. Misol uchun, ekologik tadqiqotlar orqali iqlim o'zgarishining ta'sirlarini o'rganish va unga qarshi kurashish yo'llari ishlab chiqiladi.

### **Innovatsiyalar va texnologik rivojlanish**

Tadqiqotchilik faoliyati innovatsiyalarni yaratishda va yangi texnologiyalarni ishlab chiqishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Yangi ilmiy kashfiyotlar ko'pincha amaliyotda, iqtisodiyotda va kundalik hayotda ishlatiladigan yangi texnologiyalarga olib keladi. Masalan, axborot texnologiyalari, energetika, tibbiyot va sanoat sohalarida olib borilayotgan tadqiqotlar yangi mahsulotlar, usullar va tizimlarni yaratishga olib kelmoqda. Shuningdek, bu texnologiyalarni amalga oshirish va rivojlantirishda tadqiqotchilik faoliyatining ahamiyati juda katta.

### **Iqtisodiy rivojlanish va barqarorlik**

Tadqiqotchilik faoliyati iqtisodiy rivojlanishning poydevorini yaratadi. Innovatsiyalar va yangi texnologiyalar iqtisodiyotda samarali ishlashni ta'minlash, ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish va yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni, resurslardan samarali foydalanishni, ishlab chiqarish va xizmatlar sifatini oshirishni va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashni imkonini beradi. Tadqiqotchilik, shuningdek, davlat siyosatining samaradorligini oshirishda va ijtimoiy sohalarda adolatni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

### **Ta'lim va kadrlar tayyorlash**

Tadqiqotchilik faoliyati ta'lim tizimi va ilmiy kadrlarni tayyorlashda ham muhim o'rin tutadi. Tadqiqotchilik orqali ilmiy metodologiyalar va pedagogik yondashuvlar ishlab chiqiladi, bu esa ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. Ta'lim tizimining samarali ishlashi, o'quvchilarga, talabalar va ilmiy kadrlar tayyorlashda yuqori malakali mutaxassislar yetishtirishga imkon yaratadi. Tadqiqotlar orqali yangi pedagogik metodlar va bilimlarni o'rgatish usullari ishlab chiqiladi, bu esa jamiyatning intellektual va ilmiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

## **XULOSA**

Tadqiqotchilik faoliyati — ilm-fan, texnologiya va jamiyatning rivojlanishida muhim rol o'ynaydigan faoliyatdir. Bu jarayonning ahamiyati nafaqat yangi bilimlarni yaratish va ilmiy izlanishlar natijasida yangi nazariyalar va yondashuvlarni ishlab chiqishda, balki ushbu bilimlarning amaliy hayotga tatbiq etilishida ham sezilarli. Tadqiqotchilik faqat ilmiy sohalarda emas, balki iqtisodiyot, ijtimoiy tizimlar, ekologiya va ta'lim sohalarida ham jiddiy ta'sir o'rsatadi. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatning rivojlanishiga, barqaror o'sishga va global muammolarni hal qilishga yordam beradi. Tadqiqotchilik faoliyati davomida, uning etik jihatlari ham muhim ahamiyatga ega. Ilmiy izlanishlar odatda jamiyatning manfaatlariga xizmat qilishi kerak, shuning uchun tadqiqotchilar ilmiy metodlarni to'g'ri qo'llash, axloqiy me'yorlarga rioya qilish va inson huquqlarini hurmat qilishlari zarur.

Tadqiqotchilikning etik tamoyillari, natijalarning ishonchliligi, adolatli va adolatli bo‘lishini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Umuman olganda, tadqiqotchilik faoliyati faqat ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishda emas, balki jamiyatning har bir sohasida, ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishda beqiyos ahamiyatga ega. Bu faoliyat, bizning kelajagimizni shakllantirishda, yangi bilimlar va yondashuvlar ishlab chiqishda va global muammolarni hal qilishda eng muhim vosita hisoblanadi. Shuning uchun, tadqiqotchilik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish jamiyatning taraqqiyotidagi eng muhim vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Stepanova, M.V. Uchebno-issledovatel'skaya deyatelnost shkolnikov v profilnom obuchenii: Uchebno-metodicheskoye posobiye dlya uchiteley / Pod red. A.P. Tryapishnyou. SPb., 2005. S. 28-31-betlar.
2. T. A. Karimov “Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar”. Fan va ta’lim nashriyoti. 2019-yil. 124-bet.
3. A. F. Tursunov “Innovatsion iqtisodiyot: nazariyasi va amaliyoti”. Iqtisodiyot nashriyoti. 2020-yil. 78-bet.
4. S. H. Azimov “Tadqiqotchilik faoliyati va uning jamiyatdagi ahamiyati”. Universitet nashriyoti. 2021-yil. 56-bet.
5. M. Sh. Yusupov “Ilmiy tadqiqotlar va ularning amaliy ahamiyati”. Akademiya nashriyoti. 2018-yil. 102-bet.
6. Shermuxammedova N.A. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. –Toshkent: Noshir, 2020-yil. 480-bet.
7. Sian, P., & Newell, A. *Science and Technology in Society: A Sociological Perspective*. New York: Springer. 2009